

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14869375>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL JANRINI O‘QITISH METODIKASI

Xolmamatov Jahongir Arzimurod o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Mambetova Lobar Mirzavali qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mambetovalobar1304@gmail.com

***Annotatsiya:** O‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lgan masallar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishda, ularning tasavvurini, dunyoqarashini va mavhum tushunchalarni oson anglash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda samarali tarbiya vositasidir.*

***Kalit so‘zlar:** Allegoriya, o‘qish savodxonligi, masal, majoz, personaj, syujet, ongli o‘qish, ifodali o‘qish, ovozli o‘qish, ichda o‘qish.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan janrlardan biri masaldir. Masal janri uzoq tarixga ega bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biridir. Masallar pand-nasihahamda o‘gitlarga boy, ramziy va majoziy obrazlarning tasvirlanishi jihatidan jamiyat va kishilar o‘rtasidagi muammoli vaziyatni aks ettiruvchi, kichik voqelikka asoslangan maqsad va g‘oyalarning umumlashmasidan iborat bo‘lgan liroepik janrdir. Masal janri qadimgi dunyo ta‘limoti va insoniyat tarixi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida fikrlar mavjud.

O‘tmishda insonlar borliq va tabiatni mifologik talqin qilib, ulardan turli afsona va rivoyatlar qolganligi ma‘lum. Bu janrning xalq og‘zaki ijodi janrlari zamirida

takomillashgani va uning farqli xususiyatlari to'g'risida D.Abdullayeva o'z tadqiqotida: "Mif, afsona, masal, qissa va dostonlar zahirida qadimgi odamlarning turli qarashlari, ishonch-e'tiqodi, xayoliy tasavvurlari mavjud bo'lsa, masallardan ko'zlangan maqsad o'z tajriba va malakalarini, hayotdan olgan ibratli xulosalarini keyingi avlodga namuna sifatida yetkazish hisoblangan. Albatta, barcha masallar miflardan kelib chiqqan, degan fikrdan yiroqmiz. Biroq masallarning umumiy xususiyati uning qadimdan mavjudligi miflar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ibrat, o'git, pand-nasihati, ta'lim berish funksiyasini qadimdan masallar bajargan" - deb ta'kidlab o'tadi.

Qadimgi donishmandlar odamni to'g'ridan-to'g'ri xafa qilmasdan, unga haqiqatni so'z bilan aytishning ajoyib usulini o'ylab topishgan. Masal - axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, masal, ba'zannasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlarda – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi.

"Masal" arabcha so'z bo'lib, "namuna, misol" ma'nosini bildiradi. Masal xalq og'zaki ijodida ham she'riy, ham nasriy yo'lda yozilgan, asosini majoziy va ramziy obrazlarning faol harakati tashkil etgan, ta'limiy mazmundagi satirik va yumoristik tanqid ruhida bayon qilingan kichik hikoyadir. Bu janrning xalq poetik ijodiga yaqinligi, uni avvalo donishmand xalq yaratganligi, so'ng esa yozuvchilar, shu jumladan, Ezop o'z ijodida takomillashtirgani xususida so'z boradi. Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganishda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Masalning allegorik mazmuniga to'xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi masalga o'xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlari ba'zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko'proq she'riy tarzda bo'lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib olish boshlaydilar.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida masal matni ustida ishlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- masal mazmunini aniq idrok etish;
- kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;
- allegoriyani aniqlash.

Masal matni ustida ishlashda allegoriyani aniqlash boladan badiiy asar mazmunini, muallifning maqsadini anglashni talab qiladi. Allegoriya yunoncha so‘z bo‘lib “o‘zgacha ifodalash, kinoya, qochirim” degan ma‘noni anglatadi, badiiy adabiyotda badiiy tasvir, obrazlilik turi bo‘lib mavhum tushuncha yoki g‘oyalarni muayyan narsa, voqea va hodisa orqali ifodalashga aytiladi[1].

Masal tili ustida ishlaganda, o‘quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o‘quvchilarga mustaqil toptiriladi: o‘quvchilar o‘qituvchi bergan gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar.

Masal tahlil qilinayotganda voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba‘zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif tuzish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Personajga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi[2].

Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, xar bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Masalan, “Laqma it” masalini o‘qiganda, laqma itning yalinib-yolvorishi, mushukning to‘g‘riso‘zligi muomalasi orqali ifodalandi. Dialogli masallarni rollarga bo‘lib o‘qish, inssenirovka qilib, aytdirish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida masal matni ustida ishlashda muammoli ta’lim texnologiyasidan, keys-studydan foydalanish orqali o‘quvchilarda masal matnida berilgan ochiq ma’lumotni va uning mazmuniga singdirilgan yashirin ma‘noni anglashga, masaldan to‘g‘ri xulosa chiqarish, masaldagi muammoning sababi va

yechimini topishda tafakkur qilish orqali eng to'g'ri yo'llarni topa olish ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi. Masal janrini muammoli ta'lim asosida o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish ham ko'zda tutiladi, chunki, muammoli ta'lim jarayonida ular o'z fikrlarini mustaqil bayon qiladilar, tafakkur qilish jarayoni kechadi. Maktab yoshidagi va boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan o'quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir, chunki mazkur bolalarning hozirgi zamon talabi asosida jamiyatimiz ishlarida faolligini ta'minlashda ular nutqining ravonligi katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida masal matni ustida ishlashda o'quvchilar masal mazmunidan xulosa chiqarishlarida o'qituvchi tomonidan oldindan masal asosida tayyorlangan savollar asosida savol-javob o'tkazish orqali muhokama qilish samarali natija beradi[3].

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida masal janri o'tilgan darslarda uyga vazifa topshiriqlariga masalni ifodali o'qib kelish, masaldan olgan xulosasini yozma ifodalab kelish, masal mazmuniga mos xalq maqollaridan topib kelish, masalga mos rasm chizib kelish, masal mazmuni asosida savol va topshiriqlar tuzib kelish topshiriqlarini berish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinflarda masalni o'rganayotganda bolalarni masalni ifodali o'qishga va uning mazmunini qisqa, ba'zan bir necha so'z bilan aytib berishga, ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, o'zaro qiyoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. III qism. – Toshkent: “Novda Edutainment”, - 2023. – 96 b.
2. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
3. Mambetova L.M. Some aspects of the development of the speaking competence of students during the lesson process // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, September 12, 2023. Volume 03, Issue 09, P: 13-18. ISSN 2771 – 2141. IFSIJ JIF: 7.16
4. Mambetova L.M. The role of reading and understanding the text in the development of speech competence of students // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Poland, conference <https://conferencea.org> August 20th 2023. - P: 102-106